DAVLAT MAQSADLI FONDLARI MOLIYAVIY RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI VA MABLAG‘LAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Akmalov Anvar Sarvarovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi
a.akmalov@newuzbekistanuniversity.uz

Мирзаев Озод Фуркатович
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси доценти, PhD
ozod_82@mail.ru

Annotasiya. Mazkur maqolada byudjetdan tashqari jamg‘armalarni tashkil etishning maqsadi jamiyat uchun muhim bo‘lgan xarajatlarni budjet mablag‘laridan tashqari mustaqil manbalar hisobidan ta’minlashdir va davlat maqsadli jamg’armalarining mohiyati, tashkil etilishining sabablari, tarkibi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, yoritilgan.

Kalit so‘zlar: byudjet mablag‘lari, byudjet parlamenti, konsolidatsiyalashgan byudjet, maqsadli jamg‘arma, g‘aznachilig tizimi, davlat byudjeti.

Аннотация. Целью организации внебюджетных фондов является обеспечение расходов, имеющих значение для общества, за счет самостоятельных источников, кроме бюджетных средств, а также характер фондов государственного целевого назначения, причины их образования, их структура и социально-экономическое значение. Все вышеперечисленные вопросы раскрываются в данной статья.

Ключевые слова: бюджетные средства, бюджетный парламент, консолидированный бюджет, целеустремленный фонд, казначейская система, бюджет государства.

Annotation. The purpose of the organization of extra-budgetary funds is to secure expenditures of importance to society from independent sources other than budgetary funds, as well as the nature of state-purpose funds, the reasons for their formation, their structure and social-economic importance. All the above questions are revealed in this article.

Keywords: budget funds, budget parliament, consolidated budget, trust fund, treasury system, state budget.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida O‘zgarishga boy iqtisodiy sharoitlar ko‘pincha boshqaruv qarorlarini tez jalb qilish zarurligini belgilab qo‘yadi, shu qatorda moliyaviy resuslarni qayta taqsimlanishida hamdir. Budjet mablag‘laridan foydalanish hukumat organlari qonun asosida qa’tiy tasdiqlab bersa, budjetdan tashqari jamg‘armalar esa ijroiya organlari orqali belgilanadi. Qonun asosida tasdiqlangan budjet parlament tomonidan nazorat qilinadi, budjetdan tashqari jamg‘armalar esa qonun chiqaruvchi organlar tomonidan nazorat qilmaydi. Bu ham budjetdan tashqari jamg‘armalarni iqtisodiy

sharoitiga moslashishni tezlatadi. Budjetdan tashqari jamg‘armalarni tashkil etilishining zarurligini va maqsadga muvofiqligini ta’minlovchi yana bir muhum omil - bu budjet tangligidir[1]. Xarajatlarning daromaddan o‘sib ketishi moliyaviy resurslarni faqat qidirib topishni emas, balki korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag‘larni qayta guruhlanishini ham talab etadi. Mana shunday sharoitda ma’lum tarmoq va sohalarni rivojlantirishda budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarni roli kattadir. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida iqtisodiy jamg‘armalarning roli alohida ahamiyatga molikdir.

Quyidagi rasmda O‘zbekiston Respublikasining Konsolidasiyalashgan byudjetning 2022 yilgi prognozi va 2023–2024 yillardagi mo‘ljallari keltirilgan[7]

1-jadval

Кўрсаткичлар	2022 йил	2023 йил	2024 йил
I. Консолидациялашган бюджет даромадлари	252,2	271,4	313,2
Ялпи ички маҳсулотга нисбатан, фоизда	*30,0*	*27,9*	*27,8*
Давлат бюджети даромадлари	*192,5*	*210,3*	*246,3*
Давлат мақсадли жамғармалари даромадлари *	*31,7*	*34,1*	*38,0*
Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармалари тушумлари**	*14,7*	*15,7*	*16,5*
Тикланиш ва тараққиёт жамғармасига тушумлар	*13,3*	*11,3*	*12,4*
II. Давлат бюджети ва мақсадли жамғармалари ўртасидаги трансфертлар	24,9	26,1	28,1
III. Консолидациялашган бюджет харажатлари	277,2	300,0	337,8
Ялпи ички маҳсулотга нисбатан, фоизда	*33,0*	*30,8*	*30,0*
Давлат бюджети харажатлари *	*177,7*	*194,0*	*221,7*
Давлат мақсадли жамғармалари харажатлари	*58,0*	*61,7*	*67,0*
Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармалари харажатлари**	*14,6*	*15,6*	*16,3*
Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси маблағларининг сарфланиши	*14,8*	*15,1*	*18,0*
Ташқи қарз ҳисобидан давлат дастурларига харажатлар	*12,0*	*13,6*	*14,9*

IV. Консолидациялашган бюджет сальдоси	-25,0 -	-28,6	-24,6
Ялпи ички маҳсулотга нисбатан, фоизда	*-3,0*	*-2,9*	*-2,2*
V. Давлат қарзларини сўндириш	12,9	11,4	15,1
Ялпи ички маҳсулотга нисбатан, фоизда	*1,5*	*1,2*	*1,3*

**Davlat byudjeti va Davlat maqsadli jamg‘armalari o‘rtasidagi transfertlarsiz ko‘rsatilgan.*

*** Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari tushumlari va xarajatlari ma’lumot uchun ko‘rsatilgan*

Yuqoridagi jadvaldan ma’lumki konsolidatsiyalashgan budjet daromadlaridan maqsadli davlat jamg‘armalariga 2022-yil 14.7 trln.so‘m ajratilgan bo‘lsa 2024-yilgi rejada esa bu ko‘rsatkich 16.5 trln.so‘mni tashkil etmoqda. Davlat budjetidan maqsadli jamg‘armalariga transferlar 2022-yil 24.9 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa,2024-yilga rejalashtirilgan mablag‘lar 28.1 trln.so‘mni tashkil etmoqda.

Davlatning budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

- davlat maqsadli jamg‘armalari faoliyatini moliyaviy jihatdan qo‘llabquvvatlash va barqarorlashtirish maqsadlarida jamg‘armalarga kapital qo‘yilmalar va investitsiyalarni jalb etish ularning davlat budjetidan dotatsiyalar olish holatlarini qisqartiradi;
- o‘zbekistonda davlat maqsadli jamg‘armalarining barqaror hamda uzluksiz faoliyatini ta’minlash uchun eng muhim yo‘nalishi sifatida kichik biznes

va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish va kasanachilik sohalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag‘batlantirishdan etarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining shakllantirsh zarur;

- mamlakat moliyaviy qonunlariga jamg‘armar daromadlari hajmini optimallashtirishni, moliyaviy resurslaridan foydalanish bo‘yicha javobgarlikni oshirishni ko‘zda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritish;
- davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining aniq va maqsadli, standartlardan og‘ishmay ishlatilishi ustidan nazoratni yanada oshirish, jamg‘armalar daromadlari shakllanishi va xarajatlarining ijrosini amalga oshirishda amaldagi g‘aznachilik tizimi faoliyatini yanada mustahkamlash orqali davtlabki va joriy nazoratlar mustahkamligini ta’minlash;
- budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalardan samarali foydalanish maqsadida davlat moliyaviy siyosati bilan davlat hokimiyat organlarining moliyaviy siyosatining bir xilligini ta’minlash;
- mamlakatning kelgusi davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishida moliya tizimi barqaror faoliyatini ta’minlovchi ijtimoiy yo‘nalishdagi maqsadli jamg‘armalarni shakllantirish.
- jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish va jamg‘arib boriladigan pensiyani ixtiyoriy badallar hisobiga shakllantirishni

rag‘batlantirish Aholini ijtimoiy himoyalash muammolari qanchalik keng qamrab olinganligi va ilmiy jihatdan chuqur o‘rganganligiga qaramay, bu masalaning dolzarbligi saqlanib qolaveradi. Iqtisodiyot taraqqiy etgan sari mazkur fondlarning ahamiyati ham ortib boradi. Bu esa davlatning budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarining mohiyati va vazifasini ilmiy tarzda tushunishni, tahlil etishni, ularning faoliyatini jahon tajribasini hisobga olgan holda takomillashtirishni talab etadi[2]. Yuqorida tahlil qilgan jahon tajribasidan ma’lum bo‘ldiki, pensiya tizimini faqat davlat tomonidan moliyalashtirish etarli samara bermaydi. Hozirgi kunda pensiya tizimini moliyalashtirishning bir vaqtning o‘zida uch yo‘nalish - minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi, professional assotsiatsiya yordamida o‘zining ish beruvchilariga qo‘shimcha pensiyani shakllantirish, fuqarolar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida, xususiy pensiyani ta’minlash belgilangan. AQSh, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsa-riya, Italiya kabi mamlakatlar shu yo‘ldan bormoqda. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish, byudjetdan tashqari mablag’lar, jamg’armalar hisobini yuritish va takomillashtirish bo’yicha bir qator xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan T.Poleshchuk va O.Mitina budjet tashkilotlarining asosiy funksional vazifalari, buxgalteriya hisobi obyektlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag’lar hisobi [3] bo’yicha o’zlarining ishlanmalarini amalga oshirgan.

Wan Zuriati Wan Zakaria boshchiligidagi tadqiqotchilar Malayziyaning davlat sektori sektorida buxgalteriya hisobi axborot tizmidagi belgilangan vazifalarning samaradorligi [4] bo’yicha izlanishlar olib borgan. Mamlakatimiz olimlaridan S.U. Mehmonov budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metadalogiyasini takomillashtirish [5] borasida izlanish olib borilgan.

Biroq, bugungi kunda davlat tibbiyot tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag’lari buxgalteriya hisobi va uni takomillashtirishga qaratilgan kompleks ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Davlat tibbiyot tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag’lari bo’yicha buxgalteriya hisobini yuritilishi, normativ-huquqiy hujjatlar talablari va amaldagi holat yuzasidan tahlil va sintez, tizimli yondashuv, monografik kuzatuv va tahliliy usullardan foydalanilgan.

Misol sifatida Hisob palatasining O’zbekiston Respublikasi davlat budjeti va davlat maqsadli jamg’armalar budjetlarining 2021 yildagi ijrosi to’g’risidagi hisobot bo’yicha xulosasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilgan hisobotga ko‘ra Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi “Tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish” jamg‘armasining 2021 yildagi jami daromadlari 25 017,0 mln so‘mni yoki rejaga nisbatan 37,0 foizni, kassa xarajatlari 4 082,4 mln so‘mni yoki rejaga nisbatan 6,0 foizni tashkil etganligi qayd etilgan. O‘rganish jarayonida jamg‘armaning hisobotida yil boshidagi qoldiq mablag‘ni 275,3 mln so‘mga kam ko‘rsatilganligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu farq Respublika byudjetiga qaytarilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar hisobiga to‘g‘ri kelgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida 2020-2022

yillarda hududlarni raqamli transformasiya qilish dasturlari” doirasida 26 ta namunaviy tuman (shahar)lardagi jami 345 ta sog‘liqni saqlash muassasalari uchun 3 662 ta texnikalar (kompyuter, printer, elektron panel, tarmoq qurilmalari) xarid qilinishi ko‘zda tutilgan. Jamg‘armaga ushbu maqsadlar uchun 21 159,3 mln so‘m kelib tushgan bo‘lsada, Farmon ijrosini ta’minlash borasida yetarli ishlar tashkil qilinmaganligi sababli, mazkur texnikalar xarid qilinmagan xamda mablag‘lardan foydalanilmagan. [6]

Bundan kurinib turibdiki budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg’armalari mablag’lari harakatini hamda daromadlarini hisobga oluvchi buxgalteriya schyotlarini moliya bo’limlari, g’aznachilik bo’linmalari tomonidan ham aynan shu buxgalteriya schyotlarda hisobini yuritish tizimini jorish etish zarur. Natijada budjetdan tashqari mablag’larning har biri turi bo’yicha ma’lumotlarni alohida shakllantishga hamda ma’lumotlarni ishonchliligini ta’minlashga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimanki, mamlakatimiz moliya tizimida davlat maqsadli jamg’armalarining o‘rni beqiyos, hisoblanadi davlat maqsadli jamg‘armalar faoliyatining rivojlantirilishi va ularning moliyaviy barqarorligini yanada oshirilishi pirovardida moliya tizimi barqarorligining mustahkamlanishiga imkon yaratadi.

Adabiyotlar

1. “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudeti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.12.2019 yildagi O‘RQ-589-son
2. “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudeti to‘g‘risida”
3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 25.12.2020 yildagi O‘RQ-657-son
4. Полешук Т.А.Б, Митина О.В. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях.
5. Wan Zuriati Wan Zakaria, Norazlina Ilias, Norlidawahi Wahab. A survey on the impact of Accounting information system on tasks efficiency: Evidence from Malaysian public sector Agencies. International Review of management and marketing ISSN: 2146-4405.2017, 7 (1) 183-190.
6. Mehmonov S.U. “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metadalogiyasini takomillashtirsh” i.f.d. diss. Avtoref. 76.b.-T.,2018.
7. Hisob palatasining O’zbekiston Respublikasi davlat budjeti va davlat maqsadli jamg’armalar budjetlarining 2021 yildagi ijrosi to’g’risidagi hisoboti.
8. 1-rasm muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi va 2022 yil uchun Byudjetnoma bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi asosida tayyorlangan.